

O'RTACHO'L VOHA LANDSHAFTLARINI TASHKIL ETISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Nematov A.A

Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rtacho'l vohasining umumiy tabiiy geografik xususiyatlari hamda voha landshaftlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Voha, texnogen, tuproq degradatsiyasi, cho'llanish, deflyatsiya, eroziya, agroekotizim, tabiiy resurs, antropogen landshaft, GIS texnologiyalari, masofadan zondlash, ekoturizm va rekreatsion resurs.

GEOGRAPHICAL ASPECTS OF ORGANIZING URTACHUL OASIS LANDSCAPES

Nematov A.A.

Senior Lecturer at Bukhara State University

Abstract: This article examines the general natural-geographical features of the Urtachul oasis and the scientific research work conducted to study oasis landscapes. Additionally, a map of the Urtachul oasis landscapes has been compiled and its analysis is provided.

Keywords: Oasis, technogenic, soil degradation, desertification, deflation, erosion, agro-ecosystem, natural resource, anthropogenic landscape, GIS technologies, remote sensing, ecotourism and recreational resource.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЛАНДШАФТОВ ОАЗИС УРТАЧУЛ

Нематов А.А.

Старший преподаватель

Бухарского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются общие физико-географические особенности Среднеазиатского оазиса и научно-

исследовательские работы, проведенные по изучению оазисных ландшафтов. Наряду с этим, составлена карта оазисных ландшафтов Среднеазиатского оазиса и представлен ее анализ.

Ключевые слова: оазис, техноген, деградация почв, опустынивание, дефляция, эрозия, агроэкосистема, природный ресурс, антропогенный ландшафт, ГИС-технологии, дистанционное зондирование, экотуризм и рекреационный ресурс.

Kirish. Bugungi kunda inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning jadallashuvi natijasida tabiiy muhitda turli antropogen o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu jarayonlar sug'oriladigan yerlarning texnogen buzilishi, tuproq degradatsiyasi, cho'llanish, deflyatsiya, eroziya jarayonlarining kuchayishi, meliorativ holatning yomonlashuvi hamda bioxilma-xillikning qisqarishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammolar ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biriga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ekologik muhitni sog'lomlashtirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va cho'llanish jarayonlariga qarshi kurashish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish hamda "Yashil makon" umummilliy loyihasini keng joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ekologik jihatdan murakkab hududlar, jumladan O'rtacho'l vohasi landshaftlarining shakllanish xususiyatlari, ekologik holati va ulardan oqilona foydalanish masalalarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi O'rtacho'l voha landshaftlarining hududiy tarkibi, ekologik holati va ularni tashkil etishning geografik jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

O'rta Osiyo voha landshaftlarini o'rganish, ularning morfologik tuzilishi, ekologik holati va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq o'zgarishlari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, A.A. Abdulqosimov, L. Alibekov, A. Rafiqov, N.I. Sabitova, O.Sh. Ro'ziqulova, A.N. Nigmatov, A. O'razboev, Yu. Sultonov, A. Jabbarov, A. Nazarov, S. Abdullaev, I. Usmonov, A. Raxmatullaev, I. Nazarov hamda A. Xojimatovlarning ilmiy ishlari voha landshaftlarining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga bag'ishlangan.

A.A. Abdulqosimov voha landshaftlarini antropogen landshaftlarning zonal turi sifatida baholab, ularni inson xo'jalik faoliyati natijasida shakllangan va muntazam boshqarib boriladigan sug'orma agroekotizimlar deb ta'riflaydi. F.N. Milkov esa O'rta Osiyo vohalarini tabiiy komponentlari kuchli transformatsiyaga uchragan antropogen landshaftlar sifatida tavsiflaydi.

A.N. Xojimatov voha landshaftlarini tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri natijasida shakllangan murakkab geotizim sifatida talqin qilib, ularda tabiiy va ijtimoiy omillarning uyg'unlashuviga alohida e'tibor qaratadi[6].

T.V.Zvonkova tadqiqotlarini uning shogirdi M.Umarov (1967) izlanishlarida o'z rivojini topgan. Olim Quyi Zarafshon hududining tabiiy komplekslarini ajratishda tabiiy geografik (landshaft)"okrug-rayon-kichik rayon - landshaftlar tipi guruhi-landshaft tipi" birliklari asosida ish tutgan[2].

Tadqiqot obyekti sifatida Quyi Zarafshon hududida joylashgan O'rtacho'l vohasi tanlandi. Hudud ma'muriy jihatdan Navoiy viloyati tarkibiga kiradi. Shimolda Ko'ktog' massivlari, janubda Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumani hamda Qashqadaryo viloyatining Muborak tumani hududlari bilan chegaralanadi.

Birinchi navbatda, ekologik muammolarning boshlang'ich omili sifatida hududning tabiiy sharoit noqulayligi aks etirilgan. O'rtacho'l vohasi arid iqlim mintaqasiga kirib, bu yerda yog'in miqdorining kamligi, yozgi haroratning yuqoriligi va bug'lanishning yuqoriligi kuzatiladi. Mazkur omillar tabiiy resurslar, ayniqsa suv resurslarining shakllanishi va qayta tiklanishiga nojo'ya ta'sir

ko'rsatadi. Buning oqibatida hududda suv ta'minoti bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi.

O'rtacho'l vohasi Quyi Zarafshon hududidagi nisbatan yosh va yangi o'zlashtirilgan voqa landshaftlaridan biri hisoblanadi. Voqa, To'dako'l suv ombori va Ko'ktog' oralig'ida joylashgan bo'lib, To'dako'l pastqamligi tomon nishab tekisliklardan iborat. Mutlaq balandliklar shimoliy va shimoli-sharqiy qismlarida 220–300 m ni tashkil etib, janubi-g'arbiy qismida 220 m gacha pasayadi[1].

Qadimda To'dako'l – O'rtacho'l hududi (Malik va Qarnob cho'li orasida joylashgan) chorvadorlar vatani bo'lgan. Yaylovzorlari hosildor, ayniqsa, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, qorabosh, shuvoq, pasttepa, singren, chaqir (qandim) yaxshi o'sgan. Hudud to'lig'icha quduqlar suvi bilan ta'minlangan. Vohada quduqlar nomi bilan nomlangan Yangiquduq aholi punkti mavjud. Tarixda O'rtacho'l hududida 60 dan ortiq quduqlar mavjud bo'lgan. Bizga ma'lumki har qanday o'simlik turining pishib yetilishi uchun o'ziga tegishli issiqlik, namlik kerak bo'ladi. O'rtacho'l vohasida qishloq xo'jaligini yuksaltirishning eng muhim sharti suv muammosining hal etilishi edi. Bu muammoni hal qilish maqsadida Amu – Buxoro mashina kanali suvidan foydalanildi[3].

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, hududda antropogen bosimning ortishi natijasida landshaftlarning tabiiy barqarorligi pasayib bormoqda. Ayniqsa, sug'orma dehqonchilikning kengayishi, suv resurslaridan samarasiz foydalanish va yaylovlarning ortiqcha yuklanishi ayrim landshaft komplekslarining transformatsiyalanishiga olib kelmoqda.

Shu bois landshaftlarni boshqarishda GIS texnologiyalari, masofadan zondlash ma'lumotlari va landshaft monitoringi tizimlaridan keng foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa

O'rtacho'l vohasi landshaftlari tabiiy va antropogen omillarning murakkab o'zaro ta'siri natijasida shakllangan geotizim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- sugʻorish tizimlarini modernizatsiya qilish va suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish;
- shoʻrlanish hamda deflyatsiya jarayonlariga qarshi biologik va meliorativ tadbirlarni kuchaytirish;
- GIS va masofadan zondlash texnologiyalariga asoslangan landshaft monitoringi tizimini yaratish;
- degradatsiyaga uchragan yerlarni rekultivatsiya qilish;
- yaylovlardan ilmiy asoslangan foydalanish tizimini joriy etish;
- ekoturizm va rekreatsion resurslardan samarali foydalanish;
- iqlim oʻzgarishi sharoitida hududiy moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish;
- aholini sifatli ichimlik suvi, gaz va boshqa muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalari bilan taʼminlashni takomillashtirish.

Mazkur tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi Oʻrtachoʻl vohasi landshaftlarining ekologik barqarorligini taʼminlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va hududning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Аббасов С.Б. Антропогенные изменения в ландшафтах пустыни Кызылкума. // Теоретические и прикладные проблемы географии на рубеже столетий. Часть 1. – Алматы: Аркас, 2004. – С. 78–80.
2. Звонкова Т.В. Бухарская область. Природные условия и ресурсы Юго-Западного Узбекистана. – Ташкент: «Наука», 1965. – С. 304–336.
3. Mirzoyeva I.E., Nematov A.N. Oʻrtachoʻl voha landshaftlarini samarali tashkil qilishning geografik jihatlari// Iqlim oʻzgarishi sharoitida choʻl–voha ekosistemi: muammolar va yechimlar. Xalqaro simpozium materiallari. – 2023. – B. 157–160.
4. Mirzoyeva I.E., M.K.Ergasheva. Use of landscapes near Tudakul reservoir Efficiently.// BIO Web of Conferences , 05021 (2024 AQUACULTURE 2023 84 <https://www.bioconf.org/conference/aquaculture-2023>)

- 5.Рахматуллаев А. Воҳа ландшафтлари функционал бир бутун динамик геотизимдир// Ўзбекистоннинг геоэкологик муаммолари: халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд, 2004. – Б. 23–27.
6. Ходжиматов А.Н. Воҳалар ландшафтлари. – Тошкент, 2016. – 113 б.
- 7.Charley R.J., Kennedy B. Physical geography systems approach. – 1974.